

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 331.101(575.1)

SAIDAXMEDOV TEMUR MANSUR O‘G‘LI

INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH

70411401 – “Inson resurslarini boshqarish” mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: *i.f.d.prof.G.Q.Abdurahmanova*

Toshkent-2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabki
himoyadan o‘tgan.

2-sonli bayonnoma “ 20 ” 04 2024 yil

Kafedra mudiri
i.f.d, dotsent

S.G‘oyipnazarov

Asabot
imzo

20.05.24
sana

Ilmiy rahbar
i.f.d.,prof

G.Q.Abdurahmanova



17.05.24
sana

Tinglovchi:

[Signature]
imzo

17.05.24
sana

Dissertatsiya O‘quv-metodik bo‘limda 2024 yil “ _____ ”

№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olindi.

Bo‘lim boshlig‘i _____

ANNOTATSIYA

Respublikamizda korxonalar va tashkilotlarda inson resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Inson resurslarini rivojlantirish, kadrlar malakasi va kasbiy salohiyatini oshirishni tashkil etish, shu jumladan, mavjud inson resurslarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Dissertatsiya ishida tashkilotlarni inson resurslarini rivojlantirishning zamonaviy usullari, inson resurslarini rivojlantirish yo'nalishlari, inson resurslarini rivojlantirishning xorij tajribasi keltirilgan. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik.

Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini yanada oshirish uchun, Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani hokimligida inson resurslarini rivojlantirish tizimining samaradorligi va u bilan bog'liq masalalar qay darajada yechimini topayotganligi borasida o'rganilgan statistik ma'lumotlar va tahlillar asosida tashkilotlarda inson resurslarini rivojlantirishning zamonaviy usullari yuzasidan ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: inson resurslarini boshqarish, inson kapital, ta'lim, kasb, malaka, ish o'rni, ishsizlik, raqobat, mutaxassis, elektron tizim, model, rivojlantirish.

ANNOTATION

In our republic, the importance of effective use of human resources in enterprises and organizations is increasing day by day. The development of human resources, the organization of increasing the qualifications and professional potential of personnel, including the improvement of the existing human resources development system, is an urgent task of today.

Modern methods of human resources development of organizations, directions of human resources development, foreign experience of human resources development are presented in the dissertation work. Among other things, we prepared a review of literature after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local regulatory and legal documents on the topic.

In order to increase the practical significance of the scientific work, on the basis of the statistical data and analysis of the efficiency of the human resources development system in the Amudarya district of the Republic of Karakalpakstan and the extent to which the issues related to it are being solved, scientific research on the modern methods of human resources development in organizations and developed a practical conclusion, suggestions and recommendations.

Key words: human capital, education, profession, qualification, job, unemployment, competition, specialist, electronic system, model, development.

MUNDARIJA

Annotatsiya	
Mundarija	
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	
Keltirilgan qisqartmalar	
I BOB. KIRISH	
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti	
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	
2.1. Kirish	
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	
2.3. Mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	
2.4. Xulosa	
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	
3.1. Tadqiqot dizayni	
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...	
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	
IVBOB. TAHLIL VA NATIJALAR	
4.1. Amudaryo tumani hokimligi inson resurslari tarkibi va tahlili.....	
4.2. Amudaryo tumani hokimligining xodimlarni rivojlantirish holatining tahlili.....	
4.3. Amudaryo tumani hokimligida inson resurslarini rivojlantirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	
V BOB. XULOSA	
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	
ILOVALAR	

I BOB. KIRISH

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston oldiga oliy maqsadlarni qo'yish, ularga erishishning eng samarali yo'llarini izlash va ulardan foydalanish muhimdir. Binobarin, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, asosan, inson resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq. Inson resurslaridan samarali foydalanish nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon iqtisodiyotining dolzarb muammosidir.

Sh.Mirziyoyevning **“O'zbekiston — 2030”¹** Strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF- 158 sonli farmoni **“Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish”** deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi, **76 maqsadida** **“Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida yo'lga qo'yish”**. Birinchi xat boshida Viloyat va tuman (shahar) darajasidagi hokimliklar **vazifa va funksiyalarining aniq chegarasini belgilash**. Uchinchi xat boshida **“Hokimliklarning hududiy ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilashdagi rolini oshirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar (funksiyalar) bo'yicha «vakolatlar reyestri»ni shakllantirish”**. To'rtinchi xat boshida **“Hokimliklar va vazirliklar bo'linmalarining bir-birini takrorlovchi 70 dan ortiq funksiyalarini optimallashtirish”** vazifalari belgilangan.

Belgilangan vazifalardan kelib chiqib inson resurslaridan oqilona foydalanish, insonlarni kasb mahoratini va sog'lig'ini mustahkamlash ushbu fanning asosini tashkil etadi. Shuning uchun zamonoviy usul va tamoyillardan korxonalar va tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatlarning ustuvor iqtisodiy o'sishini ta'minlashning yo'li zamonaviy

¹ Sh.Mirziyoyevning **“O'zbekiston — 2030» Strategiyasi to'g'risida”** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF- 158 sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413> Sh.Mirziyoyevning **“O'zbekiston — 2030» Strategiyasi to'g'risida”** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF- 158 sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>